

Единый портал корпоративной информации

Объявления

"Agrobank" ATB

Объявление

"AGROBANK" AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI

НАВБАТДАН ТАШҚАРИ УМУМИЙ ЙИГИЛИШ ЎТКАЗИШ ТЎҒРИСИДА ХАБАРНОМА

AGROBANK AKSIYADORLARI DIQQATIGA!

"Agrobank" ATB Toshkent shahri Botir Zokirov ko'chasi 2a-uy manzili bo'yicha joylashgan, (korporativ veb-sayt: www.agrobank.uz (<http://www.agrobank.uz/>), e-mail: headoffice@agrobank.uz (<mailto:headoffice@agrobank.uz>)) Sizga 2024 yil

14 fevral kuni soat 15:00 da aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida qatnashingiz mumkinligini ma'lum qiladi.

YIG'ILISH KUN TARTIBI:

1. Sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
2. Bank Aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash.
3. Bankning joylashgan yeri, pochta manzilini o'zgartirish to'g'risida.
4. Bankning tashkiliy tuzilmasiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida.
5. Bank Kuzatuv kengashi tarkibini ko'rib chiqish to'g'risida.
6. Bank ustaviga kiritilgan o'zgartirishlarni tasdiqlash to'g'risida.
7. Bank ichki-me'yoriy hujjatlariga kiritilgan o'zgartirishlarni tasdiqlash to'g'risida.
8. Bankning 2023 yil faoliyatini auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish to'g'risida qaror qabul qilish.
9. Ilmiy-tadqiqot va tajriba – konstruktorlik ishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida suv xo'jaligi sohasidagi ilmiy xodimlarga (olimlarga) grant mablag'lar ajratish to'g'risida.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar reyestri tuziladigan sana: 2024 yil 8 fevral.

Umumiy yig'ilishga qatnashish va ovoz berish huquqiga ega aksiyadorlar shaxsini tasdiqlovchi hujjat, aksiyadorlar vakillari esa qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma bilan kelishlari shart.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan ma'lumot va hujjatlar bilan bank Bosh ofisi binosida ushbu e'lon berilgan kundan boshlab yig'ilish o'tkaziladigan kunga qadar soat 10.00 dan 16.00 gacha tanishishingiz mumkin.

Ma'lumot uchun telefon: (71) 202-80-08, ichki raqam 11276, 11159, 11307)

“Agrobank” ATB Kuzutuv kengashi

22.01.2024

Источник: <https://openinfo.uz/uz/announce/16703/>

Дата: 25.06.2026